

CHOLG‘U ANSAMBLARI FAOLIYATI VA MILLIY SANATIMIZ MADANIYATIDA TUTGAN TARIXIY O‘RNI

Rafiq Maqsudovich Ahmedov

O‘zbekiston davlat san‘at va madaniyat institutining Farg‘ona mintaqaviy filiali

Annotatsiya: Maqolada cholg‘u ansambllari va ijrochilik san‘atining o‘ziga xos jihatlari bayon qilingan bo‘lib, ushbu milliy madaniyatimizning qimmatbaho merosi va uni ko‘klarga ko‘targan namoyondalarning qilgan ijodiy ishlari ham ko‘zdan kechirilgan. Ushbu kichik ilmiy-tahliliy maqola orqali milliy cholg‘u ansambllaridan bazilarining ijod yo‘nalishlari va ansamb, jamoaviy ijro shaklidagi musiqa turning asl ta‘rixii ildizlari ham tadqiq qilingandir.

Kalit so‘zlar: musiqa, cholg‘u, xalq, sozanda, xonanda, marosim, risola

ACTIVITY OF INSTRUMENT ENSEMBLES AND HISTORICAL PLACE OF NATIONAL ART IN OUR CULTURE

Rafik Maksudovich Akhmedov

Fergana regional branch of Uzbekistan State Institute of Arts and Culture

Abstract: The article describes the unique aspects of musical ensembles and performing arts, the valuable heritage of our national culture and the creative works of its representatives. This short scientific-analytical article explores the creative directions of some of the national musical ensembles and the original historical roots of the ensemble and collective performance.

Keywords: music, instrument, folk, musician, singer, ceremony, risola

KIRISH

Milliy musiqa san‘atimizni ravnaq toptirish, uning taraqqiyoti uchun o‘ziga xos maktab va an‘analarni rivojlantirishda hukumatimiz tomonidan ko‘rsatilayotgan e‘tibor yosh avlod ma‘naviyatini yanada yuksaltirish, ma‘naviy-ma‘rifiy sohalarda qo‘lga kiritgan yutuqlarimizni jahonga namoyon etish kabi ulug‘vor maqsadlarga xizmat qilmoqda.¹

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoyev “Sharq taronalari” o‘n ikkinchi xalqaro festivalining ochilishiga bag‘ishlangan tantanali marosimdagi tabrik so‘zida ta‘kidlaganidek, - “Sayyoramizda turli kelishmovchiliklar va qaramaqarshiliklar, urush va nizolar avj olgan tahlikali zamonda, odamzod tobora o‘z dunyosiga o‘ralib

¹ Ahmad Bahriev “MUSIQA SAN‘ATIMIZ TARAQQIYOTI YO‘LIDA” 2018

borayotgan bir sharoitda musiqa insonga insonligini eslatib, uning qalbida kelajakka umid va ishonch uygʻotadi².

Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri va ansambllari haqida fikr yuritishdan oldin uning kelib chiqish tarixiga murojaat qilish maqsadga muvofiqdir. Oʻzbek xalq cholgʻulari orkestri tashkil qilinishidan avval, maʼlum bir xalq cholgʻular asosida oʻziga xos musiqiy ansambllar tashkil topgan. Ular oʻzining koʻp asrlik taraqqiyoti davomida oʻziga xos xususiyatlarini saqlab qolgan. Ana shu oʻziga xoslik tufayli nay, surnay, tanbur, dutor, rubob, gʻijjak, qobuz kabi sozlar anʼanaviy shakllarda bizgacha yetib keldi.³

Xalq cholgʻulari Markaziy Osiyo aholisining turmushi va mehnat faoliyatiga singib, inson faoliyatining ajralmas tarkibiy qismiga aylandi. Cholgʻular joʻrligida qoʻshiq, oʻyin va kuylar xalqning katta-katta marosimlari va oilaviy bayramlarida ijro etilgan. Bayramlar koʻproq yil fasllari bilan bogʻliq boʻlgan. Markaziy Osiyoda "Navroʻz", "Lola sayli", "Hosil bayrami", "Qovun sayli", "Uzum sayli" kabi mavsumiy bayramlarda xalq cholgʻularidan tashkil topgan ansambllar oʻzlarining chiqishlari bilan qatnashganlar. Bunday ommaviy bayramlarida xalq cholgʻu ansambllari, xonanda va sozandalar hamda raqqosalar faol ishtirok etishgan. Bayramlarda, madaniy marosimlarda ayniqsa, karnay, surnay, doira, nogʻora va chindovul⁴ kabi urma zarbli musiqa cholgʻulari keng qoʻllanilgan. Xalq raqslari aslida qosh oʻyini, yelka oʻyini, bosh oʻyini kabilarni oʻz ichiga olgan.

Bugun ham oʻzbek madaniyati va sanʼati jahon xalqlarini oʻziga maftun etib kelmoqda. Respublikamizda oʻtkazilgan xalqaro festival, anjuman va bayram tantanalari xalqaro madaniy hamkorlikka keng yoʻl ochdi.

ADABIYOTLAR TAHLILI

Ushbu masala uzoq taʼrixiy ildizlarga egaligi va qadimdan xalqimiz mintaliteti ham aynan musiqani sevadigan nozik did va yuksak qadriyatlarga bogʻlangani nuqtai nazaridan ham tahliliy qismda avvalo buyuk allomalarimizning musiqaga oid qarashlari va davriy anʼanalarini oʻzida mujassam etgan meros namunalarini koʻzdan kechirishni maqul deb bildi.

Cholgʻular tarixiga oid maʼlumotlar Forobiyning (873-950) "Katta musiqa kitobi" ("Kitob al-musiqa alkabr"), Abu Ali ibn Sinoning (980-1037) "Davolash kitobi" ("Kitobi ushshifo") qomusidagi "Musiqa haqidagi risola", al-Xorazmiyning (X asr) "Bilimlar kaliti", Sayfuddin Urmoviyning (1216-1294) "Olijanoblik haqida kitobi"

² Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. –T.: Oʻzbekiston. NMIU. 4-tom. 2020. –B. 344

³ Нурмухамеджанов, А., & Рустамов, И. (2022). ЁШЛАРНИ АХЛОҚИЙ, ЭСТЕТИК ТАРБИЯЛАШДА ЎЗБЕК ХАЛҚ ЧОЛҒУ АНСАМБЛЛАРИ ВА ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ЎРНИ. Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences, 2 (10-2), 276-282.

⁴ Chindovul – oʻzbek va tojik xalqlarida dubulgʻa shaklidagi, bir tomoni teri bilan qoplangan urma cholgʻu. Oʻzbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 9-tom. 2005. –T.: -B. 623

yoki "SHarofiya kitobi", Jomiyning (1414-1492) "Musiqqa haqidagi risola" kitoblarida bayon etilgan.⁵

Sayfuddin Urmaviy iste'dodli ud cholg'uchisi, xonanda, mashhur sozanda sifatida tanilgan. U Ozarbayjonning Urmaviya shahrida tug'ilgan. Sayfuddineng eng katta yutug'i lad (modius)larning mukammal sistemasini ishlab chiqqanligidadir.⁶

XVII asrda yashagan buxorolik musiqashunos Darvish Ali o'z risolasida tanbur, chang, qonun, rubob, qo'biz, g'ijjak kabi musiqqa cholg'ulari haqida batafsil ma'lumotlar bergan. Buyuk Sharq mutafakkirlarining merosi xalq cholg'ularini o'rganish sohasida ham tarixiy qiymatga ega.

Abu Nasr Muhammad Forobiyning mashhur asari «Kitob al - musiqqa al -kabit» («Musiqqa haqida katta kitob») ulkan ahamiyatga ega. O'rta asr olimi bu kitobida ikki xil musiqqa ijrochiligi: ohangni inson ovozi (qo'shiq san'ati) va cholg'ular vositalarida qayta tiklashga ajratadi. Forobiy mohir ijrochi sifatida musiqqa cholg'ularining jamiyat hayotidagi o'rnini o'rganishga ahamiyat beradi va u: «... Jangu - jadallarda, raqslarda, to'y - tomoshalarda, ko'ngil ochar bazmlarda hamda ishq - muhabbat qo'shiqlarini kuylashda chalinadigan o'ziga xos cholg'ular bor» deb yozgan edi.

O'zbek xalqining musiqiy merosi boy an'analarga, qadimiy tarixga egaligi ham yuqoridagi kichik doiradagi fikr va keltirilgan iqtiboslardan ham bilinadi. Tarixdan ma'lumki, u vaqt o'tishi bilan xalq musiqasi va mumtoz musiqqa negizida rivojlangan. Musiqqa san'ati insoniyatning ma'naviy boyligi, estetik dunyoqarashi va kelajak barkamolligini belgilovchi mezonlardan biri sifatida e'zozlanadi.⁷

TADQIQOT METODOLOGIYASI VA EMPIRIK TAHLIL

Ma'lumotlarga qaraganda "Ansambli" so'zi fransuzcha "ensemble" - so'zidan olingan bo'lib, "birgalikda" ma'nosini bildiradi⁸. Ikki va undan ortiq sozandalar ansambli mavjud bo'lib, ular - "duet", "trio", "kvartet", "kvintet" va turli tarkibdagi unison hamda ko'p ovozli ansambllardan iborat.

Cholg'u asboblari - musiqiy ton yoki o'ziga xos jarangdortovushlar hamda ma'lum ritmik tuzilmalarni hosil etishga mo'ljallangan cholg'u asboblari; musiqani yakkanavoz yoki jamoa (turli ansambli, orkestr vaboshqa turli guruhlar) tarzda ijro etishda ishlatiladi. Har bir Musiqqa cholg'u asboblarining sadosi o'ziga xos tembr, ma'lum diapazot, tovushqator va ifodaviy imkoniyatlarga ega. Musiqqa cholg'u asboblari sadosining sifati, ko'pincha, muayyan cholg'u asbobining shakli, umumiy tuzilishi, qurilmasi va uni tayyorlashda ishlatilgan materialgaboqliq.

⁵ Shokir o'g', H. J. R. (2023). O'ZBEK MILLIY CHOLG'U SOZLARINING TARIXIY TARAQIYOTI. *Scientific Impulse*, 1(7), 49-51.

⁶ Zokirjon o'g'li, U. S. (2023). MILLIY MUSIQA, AN'ANAVIY XALQ CHOLG'ULARI. *Journal of new century innovations*, 22(3), 36-39.

⁷ Burxonovich, T. F., & Xasanovich, M. O. (2023). AN'ANAVIY CHOLG'U ANSAMBLARINING O'ZBEK MUSIQASIDA TUTGAN O'RNI

⁸ I.Akbarov "Musiqqa lug'ati" G'ulom nomidagi san'at nashriyoti, T.,1987

Musiqa cholgʻu asboblari qadimdan qamish, bambuk, yogʻoch, tosh, suyak, metall, teri, ipak, kokos yongʻogʻi, qovoq va shu kabilardan tayyorlangan.⁹

Oʻzbek xalq cholgʻu ansamblari joʻrligida qoʻshiq va oʻyinlar xalq ommasining madaniy hayotida, ommaviy bayramlarda ijro etilganligi haqida maʼlumotlar mavjud. Madaniy yodgorliklar, tasviriy sanʼat asarlari, devoriy rasmlar, sopol haykalchalar va turli xil miniatyuralar eramizning VII asridayoq ikki turdagi, yaʼni damli va urma-zarbli cholgʻular; torli chertma mizrobli cholgʻular ansamblari mavjud boʻlganligidan dalolat beradi.¹⁰

Markaziy Osiyo xalqlari turmushida «Navroʻz», «Lola sayli», «Hosil bayrami», «Qovun sayli», «Uzum sayli», «Paxta bayrami» kabi xalq ommaviy sayil va bayramlarida karnay, surnay, doyra, nogʻora kabi musiqa cholgʻulari keng qoʻllanilib kelingan. Shuningdek bunday shodiyonalarda xalq raqslari ommalashgan boʻlib, ular qosh oʻyini, yelka oʻyini, bosh oʻyini kabi raqslarni oʻz ichiga olgan. Raqslar qarsak joʻrligida ham ijro etilganligi bois oʻziga xos «Qarsak oʻyin» sanʼati shakllangan. «Qarsak oʻyin» xalq tomosha sanʼatining qadimiy koʻrinishlaridan biri hisoblangan. Qarsak chalib, usul (ritm) hosil qilish va unga mos harakatlar topib oʻynash, qarsak oʻyining asosiy belgisi boʻlganligi haqida maʼlumotlar mavjud. U asosan ikki xil, yirik - «Besh qarsak» va «Mayda qarsak»dan iborat boʻlgan. Qarsak oʻyini ibtidoiy ovchilarning turli oʻyinlari baʼzi marosim raqslari negizida, hamda sodda dunyoqarashlar bilan bogʻliq holda yuzaga kelib, koʻp asrlik taraqqiyot yoʻlini bosib oʻtgan.

Asrlar davomida u shaklan va mazmunan oʻzgarib, madaniylashib, xalq orasida ommaviylashib, bizgacha yetib kelgan. Jizzax viloyatining Forish, Surxondaryo viloyatining Sherobod va Samarqand viloyatining togʻli va choʻl tumanlarida «Besh qarsak» va «Mayda qarsak» oʻyinlari hozirgacha ijro etilib kelinmoqda. Hayotdagi ijtimoiy oʻzgarishlar taraqqiy etganidek, ansambl ijrochilik sanʼati ham rivojlana boradi va uning turlari takomillashaveradi. Masalan: chang, ud, doyra; gʻijjak, ud, doyra; ud, chang, gʻijjak, nay, doyra; ud, chang, gʻijjak, doyra; ansambl kabi turlari ijrochilik amaliyotida qoʻllanilgan. Tanbur va doyra cholgʻularidan tuzilgan kamer turdagi ansamblar Shashmaqom asarlari, shuningdek, maqomlarning ashula yoʻllari ijrosida joʻrnavor sifatida ishtirok etgan. Tantanalar, bayramona marosimlarda barcha sozlardan tuzilgan katta cholgʻuchilar ansamblari jumladan, tanbur, dutor, rubob, gʻijjak (yoki qobuz), chang, nay, qoʻshnay (yoki bulaman) va shu kabi cholgʻu ansamblari faoliyat koʻrsatgan.

NATIJAR VA MUHOKAMALAR

⁹ D. Abduraxmonova (2022). ЧОЛГУАНСАМБЛЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. Science and innovation, 1 (С7), 93-100. doi: 10.5281/zenodo.7256697

¹⁰ Назира Рахматуллаевна Турсунова (2023). АНСАМБЛ ИЖРОЧИЛИГИ (ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ КОНСЕРВАТОРИЯСИ "РЕГИСТОН" АНСАМБЛИ ФАОЛИЯТИГА БИР НАЗАР). Oriental Art and Culture, 4 (3), 303-306.

Hozirgi vaqtga kelib mamlakatimizda sozlarning turlari va tuzilishlariga ko'ra, orkestrlar simfonik, xalq cholg'ulari, kamer, puflama, torli cholg'ulari, estrada, jaz orkestrlari faoliyat olib boradilar.

Yillar davomida ansambllar ham boshqa musiqiy yo'nalishlarga monand va barobar tarzda o'sdi, ijrochilik repertuari boyidi, xalq e'tiborini qozondi. Tez fursatda ansambl O'zbekistonning eng yaxshi musiqiy jamoalari safidan o'rin olganligi musiqa shinafandalariga yaxshi ma'lum. 1936 yili tashkil topgan O'zbek davlat filarmoniyasi (direktori Muhiddin Qori Yoqubov, musiqa rahbari To'xtasin Jalilov) qoshida 98 ijrochidan iborat «Etnografik unison ansambli», 30 ijrochidan iborat dutorchi qizlar ansambllari tuziladi.¹¹

Bizga ma'lum milliy va zamonaviy Ansamblda ko'plab mohir sozandalar, san'at ustalari faoliyat ko'rsatadilar, jamoaning ko'p yillik ijodiy faoliyati esa o'zbek musiqa san'atini yanada rivojlanishiga, uni keng ko'lamda targ'ib qilinishiga samarali xizmat qiladi. 1939 yilda esa naychi A.Ismoilov, A.Umrzoqov va changchi F.Sodiqovlar Moskvada o'tkazilgan xalq cholg'ulari ijrochilari Butunittifoq ko'rigida 2- darajali diplom bilan taqdirlanganlar. Shundan keyingi yillarda O'zbekiston radiosi va televideniesi qoshida ko'plab professional musiqa jamoalari, viloyat va tumanlarda, maktablar, o'quv yurtlar va madaniyat uylarida o'nlab, yuzlab cholg'uchilar ansambllari tashkil etildi va bugunda faoliyat yuritib kelmoqda. Ular: O'zbek teleradio kompaniyasi qoshida Yunus Rajabiy nomidagi maqomchilar ansambli (rahbari Abduhoshim Ismoilov), M.Turg'unboeva nomidagi «Bahor» xalq raqs ansambli (rahbari Ma'mura Ergasheva), filarmoniya qoshidagi «Shodlik» ashula va raqs ansambli (rahbari Qodir Mo'minov), «Tanovar» ansambli (rahbari Yulduz Ismatova), «Lazgi» ashula va raqs ansambli (rahbari Raxmatjon Qurbonov), bolalar «Bulbulcha» ansambli (rahbari Shermat Yormatov), Aviasozlar madaniyat saroyi qoshidagi «Parvoz» ansambli (rahbari Sharip Janaydarov), Xorazm viloyati Bog'ot tumanidagi «Qaldirg'och» ansambli (rahbari Shermat Fayzullaev), Qoraqalpog'iston filarmoniyasi qoshidagi «Ayqulosh» ansambli, Buxoro viloyatidan «Zarafshon» ansambli kabi ko'plab ijodiy jamoalar shular jumlasidandir.¹²

XULOSA VA TAVSIYALAR

Mustaqillikka erishishgacha bo'lgan qiyin davrda ham san'atkorlarimiz va ko'plab musiqiy sferada yetuklik maqomiga erishgan shaxslarning mehnati bilan jamoaviy ijro, umuman olganda o'zbek xalqining o'ziga xos yagona cholg'u ansabl ijrochiligi an'analari saqlab qolindi. Ular qardosh xalqlarning cholg'u asboblari va qo'shiqlarini o'rganib, mahalliy bayram va tantanalarda ulardan foydalanganlar. Shu bilan birga, o'sha davrdagi boshqa Butunittifoq xalqlari ham o'zbek madaniyati va

¹¹ N. Usmonova. "Musiqi fidoiysini xotirlab" maqolasidan. Manzil: <https://uza.uz/posts/232661>

¹² I Rustamov, Ahmadjon Nurmuhamedjanov, & Ismoiljon Rustamov (2022). YOSHLARNING IJTIMOY FAOLLIGIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARIDAGI TO'GARAKLARNING O'RNI. Science and innovation, 1 (C2), 48-50. doi: 10.5281/zenodo.657842

san'atiga katta qiziqish bildirgan, uni o'rgangan. Mustaqillikka erishgach, bu jarayonlar yanada kuchaydi.

Xulosa qilib aytganda buyuk allomalarimiz, musiqashunos olimlarimiz, musiqiy olamning sir-sinoatlarini ochib beruvchi ko'plab nodir asarlarni va qo'l yozmalarni meros qilib qoldirib ketganlar. Bu xazinani o'rganib undan yetarlicha xulosa chiqarib olish va undagi durdona fikrlarni yoshlar ongiga singdirib, ularning musiqa haqidagi bilimlarini kengaytirib, o'stirib borish ham musiqa ixlosmandlarining zimmasiga yuklatiladi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. Ahmad Bahriev "MUSIQA SAN'ATIMIZ TARAQQIYOTI YO'LIDA" 2018
2. Mirziyoev Sh.M. Milliy tiklanishdan milliy yuksalish sari. -T.: O'zbekiston. NMIU. 4-tom. 2020. -B. 344
3. Нурмухамеджанов, А., & Рустамов, И. (2022). ЁШЛАРНИ АХЛОҚИЙ, ЭСТЕТИК ТАРБИЯЛАШДА ЎЗБЕК ХАЛҚ ЧОЛҒУ АНСАМБЛЛАРИ ВА ОРКЕСТРЛАРИНИНГ ЎРНИ. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 2 (10-2), 276-282.
4. Chindovul - o'zbek va tojik xalqlarida dubulg'a shaklidagi, bir tomoni teri bilan qoplangan urma cholg'u. O'zbekiston milliy ensiklopediyasi davlat ilmiy nashriyoti. 9-tom. 2005. -T.: -B. 623
5. Shokir o'g, H. J. R. (2023). O 'ZBEK MILLIY CHOLG 'U SOZLARINING TARIXIY TARAQIYOTI. *Scientific Impulse*, 1(7), 49-51.
6. Zokirjon o'g'li, U. S. (2023). MILLIY MUSIQA, AN'ANAVIY XALQ CHOLG'ULARI. *Journal of new century innovations*, 22(3), 36-39.
7. Burxonovich, T. F., & Xasanovich, M. O. (2023). AN'ANAVIY CHOLG'U ANSAMBLLARINIG O'ZBEK MUSIQASIDA TUTGAN O'RNI
8. I.Akbarov "Musiqqa lug'ati" G'.G'ulom nomidagi san'at nashriyoti, T.,1987
9. D. Abduraxmonova (2022). ЧОЛҒУАНСАМБЛЛАРИНИ ТАШКИЛ ЭТИШНИНГ ИЛМИЙ-НАЗАРИЙ ВА МЕТОДОЛОГИК АСОСЛАРИ. *Science and innovation*, 1 (C7), 93-100. doi: 10.5281/zenodo.7256697
10. Назира Рахматуллаевна Турсунова (2023). АНСАМБЛ ИЖРОЧИЛИГИ (ЎЗБЕКИСТОН ДАВЛАТ КОНСЕРВАТОРИЯСИ "РЕГИСТОН" АНСАМБЛИ ФАОЛИЯТИГА БИР НАЗАР). *Oriental Art and Culture*, 4 (3), 303-306.
11. N. Usmonova. "Musiqqa fidoiysini xotirlab" maqolasidan. Manzil: <https://uza.uz/posts/232661>
12. I Rustamov, Ahmadjon Nurmuhamedjanov, & Ismoiljon Rustamov (2022). YOSHLARNING IJTIMOY FAOLLIGIDA MADANIYAT VA SAN'AT MUASSASALARIDAGI TO'GARAKLARNING O'RNI. *Science and innovation*, 1 (C2), 48-50. doi: 10.5281/zenodo.657842